

FAVQULODDA VAZIYATLAR VAZIRLIGI TIZIMIDA ZAMONAVIY ELEKTRON
TARTIBDA HUJJATLAR BILAN ISHLASH TIZIMINI ZAMONAVIY USLUBLAR
ASOSIDA RIVOJLANTIRISH VA YO'LGA QO'YISH

Z.M. Mirzaaxmedov

O'zbekiston Respublikasi FVV Akademiyasi katta o'qituvchisi, dotsent.

Sh.U Qutlimuratov

FVV Akademiyasi 5-batalyon kursanti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.1537322>

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli Farmon va Qarorlarini o'rgangan holda Favqulodda vaziyatlar vazirligi Markaziy apparati boshqarmalari, mustaqil bo'lim va xizmatlari, hududiy va tarkibiy tuzilmalari hamda oliy harbiy bilim yurtlari tomonidan tizimda nomaxfiy ish yuritish va hujjatlar ijrosi ustidan nazoratni tashkil etish borasida ko'nikma hosil qilishdan hamda ularni O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiysi va boshqaruvi organlarida ish yuritish va ijro nazoratini tashkil etish bo'yicha normativ hujjatlar va zamonaviy elektron tartibda hujjatlar bilan ishlash tizimini zamonaviy uslublar asosida rivojlantirish va yo'lga qo'yishning yangicha usullarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy qarashlar va takliflarni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: Prezident qarori, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, elektron hujjatlar, elektron murojaat, huquq normalari, davlat muassasasi, ariza, taklif.

Favqulodda vaziyatlar vazirligi (FVV) tizimi ko'plab davlat idoralari, tashkilotlar va fuqarolar o'rtasida tezkor va samarali axborot almashish zaruriyatini talab etadi. Hujjatlarni elektron tarzda yuritish FVV tizimida jarayonlarni tezlashtiradi, xatoliklarni kamaytiradi va samaradorlikni oshiradi.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar favqulodda vaziyatlar boshqaruvida sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Favqulodda vaziyatlar vazirligi tizimini zamonaviy davlat ish yuritish nazariyasi va amaliyoti asoslariga tayanib boshqaruvi tizimini me'yoriy hujjatlar bilan ta'minlash orqali zamonaviy talablarga javob beruvchi malakali ish yurituvchi mutaxassislarni tayyorlashga hissa qo'shishdan iborat.

Hujjatlar bilan ishlash tizimini zamonaviy uslublar asosida rivojlantirish orqali ish unumidorligi va boshqaruvni samarali tashkil etilishi hamda FVV tizimi shaxsiy tarkibini saviyasini oshirishni o'z zimmasiga oladi.

Zamonaviy davlat ish yuritish nazariyasi va amaliyoti asoslari, boshqaruvi tizimini me'yoriy hujjatlar bilan ta'minlashning maqsad va vazifalari, ish yuritish tili va uslubi, hujjat turlari, ish yuritishni tashkil etishning dolzarb muammolarini o'rganishni talab etadi.

Tadqiqotning maqsadi. O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi Markaziy apparati, boshqarmalari, mustaqil bo'lim va xizmatlari, hududiy va tarkibiy tuzilmalari hamda oliy harbiy bilim yurtlari harbiy xizmatchilari tomonidan tizimda nomahfiy ish yuritish va hujjatlar ijrosi ustidan nazoratni tashkil etish borasida zamonaviy ko'nikma hosil qilishdan iboratdir.

Tadqiqotning vazifalari. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: tizimda mavjud professional tayyorgarlikning salohiyatini oshirish; favqulodda vaziyatlar

tizimini zamonaviy dasturlar bilan ta'minlash; rivojlangan davlatlar tajribasini o'rganish, mahalliy dastur ishlab chiqaruvchilar bilan o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yish; yong'in-qutqaruva bo'linmalari shaxsiy tarkibi tomonidan insonlarni favqulodda vaziyatlardan qutqarish usullarini takomillashtirish; respublikamizdagi boshqa turdosh davlat organlari bilan mavzuga dahldor masalalar yuzasidan tajriba almashish; favqulodda vaziyatlar tizimiga malakali professional tayyorgarlik va mutaxassisligiga ega kadrlarni jalb etish; sohada ishlayotgan iqtidori xizmatchilarga yetarli darajada shart-sharoit yaratib berish, ularni moddiy qo'llab quvvatlash masalalarini ko'rib chiqishdan iborat bo'ldi.

Tadqiqot obyekti. Tadqiqot obyekti sifatida O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi Markaziy apparati, boshqarmalari, mustaqil bo'lim va xizmatlari, hududiy va tarkibiy tuzilmalari tanlangan.

Tadqiqot predmeti. Predmeti sifadida Favqulodda vaziyatlar vazirligida hujjatlar bilan ishslash va ish yuritish usullarini takomillashtirish olingan.

Tadqiqotning usullari. Favqulodda vaziyatlar vazirligi tizimida hujjatlar bilan ishslash va ish yuritish nazariyasini hamda hujjatlar almashinuvini takomillashtirishning yangicha usullarini ishlab chiqish bo'yicha malakaviy bitiruv ishida umumilmiy metodlar, tahlil, sintez, umumlashtiruv, shuningdek, juz'iy metodlar, tarixiy, mantiqiy, statistik metodlar ishlatildi.

Tadqiqot mavzusi bo'yicha adabiyotlar sharhi (tahlili). Hozirgi vaqtida vazirliklar va idoralar, davlat hokimiyyati mahalliy organlari apparatlarida ijro intizomini mustahkamlash, ish yuritishni takomillashtirish boshqaruvning barcha darajalarida xizmat olib borayotgan rahbarlar va mutaxassislar javobgarligini yanada oshirishni taqazo etmoqda.

Aynan mamlakatimizda shu yo'nalish bo'yicha Z.M.Mirzaahmedov, B.T.Akramxodjayev, G'.A.Alimov, Z.M.Jo'raev, M.Aminov, A.Madvaliev va boshqalar Zamonaviy davlat ish yuritish nazariyasi, amaliyoti va boshqaruvni me'yoriy hujjatlarini ishlab chiqishda o'zlarini hissalarini qo'shganlar. Shu bilan birga yuqorida qayd etilgan mutaxassislarning ilmiy nashrlari hozirgi davrda O'zbekiston Respublikasi FVV tizimida boshqaruvni tashkil etish va ish yuritish tizimini takomillashtirish ishlarida o'zining ijobjiy samarasini berayotganligiga qaramay, bugungi kunda hujjatlar bilan ishslash tizimini zamovaviy uslublarini yo'lga qo'yish bitiruv malakaviy ishning dolzarblik darajasini oshiradi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Favqulodda vaziyatlarga tezkor javob berish imkoniyatlarini samarali oshirish borasida elektron tizimlarda avtomatik ravishda zarur hujjatlarni yaratish va tarqatishni tezlashtirish, hujjatlarni qog'ozga nisbatan tezroq va aniqroq ishlab chiqish, arxivlash va tarqatish imkoniyatlari amalga oshirishda yangicha usul va texnikalardan foydalanishni amaliyotda joriy etish.

Xulosa: Elektron hujjatlar tizimi qog'oz hujjatlarni qisqartiradi va resurslarni tejashga yordam beradi. Bu ekologik nuqtai nazardan ham muhimdir, chunki qog'oz ishlab chiqarish uchun katta miqdorda daraxtlar kesiladi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 22 iyuldagagi № 155-sloni "Respublikada qog'ozni tejash va undan oqilonaga foydalanishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori qabul qilingan. Bugungi kunda davlat idoralarida elektron hujjat aylanish borasida ko'plab hujjatlar qabul qilinib, hayotga tatbiq etilmoqda.

Biroq, ayrim holatlarda kelib tushgan elektron hujjat qog‘ozga chiqarilib, ushbu qog‘oz ijrosi ta’milangandan keyin yana qog‘ozga chop etib, tasdiqlangan holda skanerdan o‘tkazishga to‘g‘ri kelmoqda. Bitta kelib tushgan elektron hujjat agar bir varaq bo‘lsa, uning chiqarish va ijro etish uchun ikki dona qog‘oz ishlatilmoqda.

Agarda kelib tushgan elektron hujjat 10 varaq bo‘lsa, buning uchun 20 dona qog‘oz ishlatilishi tabiiy. Favqulodda vaziyatlar tizimida sun’iy intellekt yordamida hujjatlarni avtomatik ravishda tasniflash va tahlil qilishni joriy etish orqali hujjatlar tarkibini o‘rganib, kerakli ma’lumotlarni avtomatik tarzda ajratib olish, natijalarga asoslangan qarorlar qabul qilishda yordam berishi mumkin.

Favqulodda vaziyatlarda tezkor va aniq qarorlar qabul qilishni ta’minalash uchun tahlil qilish va tasniflash jarayonlari avtomatlashtirilgan bo‘lishi kerak. Sun’iy intellekt yordamida bu jarayonlarni tezlashtirish va xatoliklarni kamaytirish mumkin.

REFERENCES

1. Z.M.Jo‘raev. Zamoniaviy davlat ish yuritish nazariyasi, amaliyoti va boshqaruvni me’yoriy hujjatlar bilan ta’minalash. O‘quv qo‘llanma. T-2011.
2. N.Mahmudov, A.Madvalixeva, Ye.Mahkamov, M.Aminov. O‘zbek tilida ish yuritish. - T: 1990.
3. Z.M.Mirzaahmedov, “Favqulodda vaziyatlar vazirligida boshqaruvni tashkil etish” [Matn]: Darslik O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasi, 2023-yil.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 22-iyuldaggi “Respublikada qog‘ozni tejash va undan oqilona foydalanishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 155-sonli Qarori.
5. Internet ma’lumotlari. Lex.uz elektron tizimi.